ILG‘OR IQTISODIYOT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR
ILMIY ELEKTRON JURNAL

UO‘K: 336.581:004.738.5:005.21:339.9

MOLIYAVIY STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISHDA KRAUDFANDING MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBASI

PhD ***Saidnazarov Firdavs***
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0000-0003-3779-9883
saidnazarovfirdavs788@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan raqamli iqtisodiyot sharoitida keng qo‘llanilayotgan kraudfanding texnologiyalari hamda ularning moliyaviy strategiyani shakllantirish va amalga oshirishdagi ahamiyati atroflicha tahlil etilgan. Shu bilan birga, kraudfandingning hozirgi iqtisodiy jarayonlardagi o‘rni va ahamiyati, uning asosiy turlari, xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan yirik platformalar, bozor kapitalizatsiyasi va rivojlanish tendensiyalari ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Shuningdek, moliyaviy resurslarni jalb qilish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash hamda moliyaviy strategiya samaradorligini oshirishda kraudfanding imkoniyatlari va undan O‘zbekiston sharoitida foydalanish istiqbollari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *moliyaviy strategiya, raqamli iqtisodiyot, kraudfanding, zamonaviy texnologiyalar, kraudfanding platformalari, kichik biznes, tadbirkorlik.*

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ КРАУДФАНДИНГА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ

PhD ***Саидназаров Фирдавс***
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. *В статье подробно анализируются технологии краудфандинга, широко применяемые в условиях цифровой экономики, являющейся одним из важнейших направлений развития современной экономики, а также их значение в формировании и реализации финансовой стратегии. С научной точки зрения рассматриваются роль и значение краудфандинга в современных экономических процессах, его основные виды, крупнейшие зарубежные краудфандинговые платформы, рыночная капитализация и тенденции развития. Кроме того, исследуются возможности краудфандинга в привлечении финансовых ресурсов, диверсификации источников финансирования и повышении эффективности финансовой стратегии, а также перспективы его применения в условиях Узбекистана.*

Ключевые слова: *финансовая стратегия, цифровая экономика, краудфандинг, современные технологии, краудфандинговые платформы, малый бизнес, предпринимательство.*

FOREIGN EXPERIENCE IN USING CROWDFUNDING MECHANISMS IN DEVELOPING FINANCIAL STRATEGIES

PhD ***Saidnazarov Firdavs***
Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of crowdfunding technologies widely used in the digital economy, one of the key areas of modern economic development, and examines their role in the formulation and implementation of financial strategies. It explores the role and significance of crowdfunding in contemporary economic processes, its main types, major crowdfunding platforms operating in foreign countries, market capitalization, and development trends. Furthermore, the article examines the potential of crowdfunding to attract financial resources, diversify funding sources, and enhance the effectiveness of financial strategies, as well as the prospects for its application in Uzbekistan.*

Keywords: *financial strategy, digital economy, crowdfunding, modern technologies, crowdfunding platforms, small business, entrepreneurship.*

Kirish.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda barcha tarmoqlar va sohalarda, ayniqsa fan, ta'lim, adabiyot, madaniyat va san'at yo'nalishlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Xususan**,** "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasining 2.4-bobida "Raqamli texnologiyalar milliy bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" doirasida raqamli texnologiyalar milliy bozori uchun qulay muhit yaratish hamda istiqbolli raqamli startaplarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan (Farmon, 2020).

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion startaplarni moliyalashtirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. An'anaviy moliyaviy manbalar — bank kreditlari, venchur kapital yoki davlat grantlari ko'p hollarda yosh tadbirkorlar uchun yetarli emas. Investitsiya faoliyatini boshlashda mos platformani tanlash juda muhimdir. Bugungi kunda turli sohalar va investitsiya turlariga moslashtirilgan ko'plab platformalar mavjud bo'lib, har biri o'zining o'ziga xos ustunliklari va imkoniyatlarini taklif etadi. Shu sababli, so'nggi yillarda Kraudfanding kabi yangi moliyalashtirish mexanizmi vujudga keldi. Ular xalqning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokiga asoslangan bo'lib, jamiyatda "xalq investitsiyasi" tamoyilini shakllantirmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Kraudfanding (ingl. Kraudfanding) so'zi "xalq tomonidan moliyalashtirish" ma'nosini bildiradi va bu so'z 2006 yilda paydo bo'lgan. "Wired" jurnali muharriri Jyeff Xau maqolalaridan birida internet foydalanuvchilari orasidagi ko'ngilli pul beruvchilarni nazarda tutib kraudfanding so'zini qo'llagandi. Kraudfanding — moliyalashtirishning innovatsion shakli sifatida — G'arbiy iqtisodiy va boshqaruv maktablari tomonidan turli nazariy paradigmalarga tayangan holda chuqur ilmiy tahlil etilgan. Ushbu modelning nazariy-metodologik asoslari kraudfanding jarayonlarining iqtisodiy mohiyatini anglash, ularning samaradorlik mexanizmlarini aniqlash va moliyaviy tizimdagi funktsional rolini baholashda muhim ilmiy vosita sifatida xizmat qiladi. Jumladan, Camilleri va Bresciani (2022) tomonidan ilgari surilgan yondashuv, ular kraudfanding turlarini yanada aniqroq to'rt guruhga ajratadilar: xayriya (donation), mukofot (reward), qarz yoki kredit (loan/debt) va aksiyalar asosidagi (shares) modellar. Bu tasnif bozorning tobora murakkablashib borayotganini hamda turli moliyaviy ehtiyojlarni qondirish qobiliyati ortib borayotganini aks ettiradi.

Rossiya Federatsiyasining eng yirik va ommabop kraudfanding (Boomstarter) platformasi asoschisi Gavrilin tomonidan ilgari surilgan ta'rifga ko'ra, kraudfanding — bu aholi

ishtirokida amalga oshiriladigan moliyalashtirish jarayoni bo‘lib, unda fuqarolar ma’lum mablag‘ to‘lab, evaziga ma’lum mahsulot yoki xizmatni olish huquqiga ega bo‘ladilar[1]. Boshqacha qilib aytganda, ishtirokchilar ularni qiziqtirgan g‘oya yoki loyiha mualliflariga investitsiya kiritadilar, g‘oya muallifi esa o‘z navbatida ularga belgilangan mahsulot yoki xizmatni taqdim etadi. Qisqacha qilib ifodalaganda, kraudfanding — bu hali yaratilmagan mahsulot yoki xizmatni oldindan sotib olish tizimidir.

Murachovskiyning ta’kidlashicha, kraudfanding — bu loyihalarni birgalikda moliyalashtirish mexanizmi bo‘lib, u shaxslarga turli yo‘nalishdagi loyihalarda ishtirok etish imkonini beradi. Unga ko‘ra, har bir ishtirokchi o‘zining shaxsiy mablag‘ini tanlagan loyihaga yo‘naltirish orqali uning amalga oshishiga hissa qo‘shishi va ayni paytda ma’lum darajada foyda olishi mumkin. Shu tariqa, kraudfanding ham ijtimoiy, ham iqtisodiy hamkorlikka asoslangan zamonaviy moliyalashtirish usuli sifatida qaraladi[2].

Krutikovning (2017) fikricha, «kraudfanding – fandrayzing (umumiy moliyalashtirish) pul mablag‘larini jalb qilishning alohida turidir. Uning fandrayzingdan farqli jihati shundaki, kraudfander tomonidan yo‘naltirilgan mablag‘ evaziga mahsulot, xizmat yoki mukofot olinadi». Miglo (2021) tomonidan ilgari surilgan qarashlarga ko‘ra, “kraudfanding - bu axborot asimmetriyasi va axloqiy xatarlar mavjud bo‘lgan moliyaviy muhitda ishonchni tiklovchi mexanizmdir.” Unga ko‘ra, kraudfanding tizimi investorlar uchun loyiha haqida to‘liq va ochiq ma’lumotlarni taqdim etuvchi shaffof platformalar orqali moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi. Shuningdek, Alegre va Moleskis (2016) kraudfandingni mukofotli, aksiyadorlik, qarzli va xayriya asosidagi modellar ko‘rinishida tasniflab, ularning har birining muvaffaqiyat omillarini zamonaviy boshqaruv nazariyalari nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari kraudfandingni turli moliyaviy strategiyalarni o‘zida mujassam etgan ko‘p qirrali va murakkab moliyaviy tizim sifatida talqin etish uchun nazariy-metodologik asos yaratadi.

Jovanovic (2019) esa kraudfanding modeliga kengroq ijtimoiy yondashuv asosida qaraydi. Uning fikricha, “kraudfanding nafaqat kapitalni safarbar etadi, balki iqtisodiy demokratiya va jamoaviy ishtirokni kuchaytiradi.” Tadqiqotchi bu mexanizmni ijtimoiy innovatsiyalarni rag‘batlantiruvchi va fuqarolik faolligini oshiruvchi samarali vosita sifatida baholaydi.

Matusik va Jones (2019) o‘z tadqiqotlarida kraudfanding muvaffaqiyatining omillarini insoniy motivatsiya va ijtimoiy aloqalarning kuchi bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, bu jarayon “mahsulotga bo‘lgan qiziqish” hamda “loyiha tashabbuskoriga nisbatan sodiqlik” tamoyillari orqali izohlanadi. Shunday qilib, olimlar kraudfandingni faqat moliyaviy instrument sifatida emas, balki ijtimoiy o‘zaro ta’sir va ishonch mexanizmlariga tayanuvchi murakkab tizim sifatida talqin etadilar.

Boshqa bir guruh olimlar kraudfandingni notijorat sohada samarali qo‘llaniladigan innovatsion moliyaviy mexanizm sifatida talqin etadilar. Ularning ilmiy izlanishlarida keltirishicha, ijtimoiy yo‘naltirilgan loyihalar keng jamoatchilik tomonidan yuqori darajada qo‘llab-quvvatlanadi, bu esa kraudfanding modelining filantropik (xayriya) salohiyati va ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi. (Belleflamme va boshq., 2013).

G‘arb tadqiqotchilarining ilmiy ishlanmalari kraudfanding fenomenini moliyaviy, institutsional hamda ijtimoiy o‘lchamlar kesimida tahlil qiladi. Bunday yondashuv kraudfanding nazariyasining ilmiy-uslubiy asoslarini chuqurlashtirib, uni zamonaviy iqtisodiy tizimda integratsiyalashgan va kompleks moliyaviy mexanizm sifatida talqin etish imkonini beradi.

[1] http://boomstarter.ru/blog/66. http://crowdwillfund.ru/Kraudfanding

[2] Kraudfandingovaya platforma kikstar. URL. http://steptosleep.ru

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola ijtimoiy tadbirkorlik haqidagi nazariy bilimlarga asoslangan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, induksiya, deduksiyadan foydalangan holda ilmiy natijalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kraudfanding platformalari innovatsion jarayonlarni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmi sifatida shakllanib, jamiyatning to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirokini ta’minlaydi. Ushbu mexanizm ayniqsa innovatsion loyihalar uchun samarali hisoblanadi, chunki u hali amalda mavjud bo‘lmagan mahsulot yoki xizmatni yaratishga qaratilgan g‘oyalarni jismoniy shaxslar tomonidan moliyalashtirish imkonini beradi. Bu holat o‘z navbatida yuqori darajadagi tavakkalchilikni anglatadi. Shu bilan birga, loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshishi va innovatsion mahsulotning bozorga chiqish ehtimoli ko‘p jihatdan uni qo‘llab-quvvatlayotgan iste’molchilarning faolligi va ishonchiga bog‘liq bo‘ladi.



1-rasm. Kraudfandingni ishlash prinsipi

Kraudfandingning mohiyati shundaki, har bir ishtirokchi kichik miqdordagi mablag‘ bilan hissa qo‘shishi mumkin, natijada ushbu kichik hissalar yig‘indisi katta moliyaviy resursni shakllantiradi (1-rasm). Mazkur rasmda kraudfanding jarayonining ishlash ketma-ketligi tasvirlangan bo‘lib, u loyihaning g‘oya bosqichidan tortib, uni moliyalashtirish, amalga oshirish va yakuniy hisobot berishgacha bo‘lgan to‘liq jarajonni o‘z ichiga oladi. Ushbu uzluksiz jarayon kraudfanding modelining shaffoflik, ishonchlilik va samaradorlik tamoyillariga asoslanishini namoyon etadi. Har bir bosqichning puxta rejalashtirilganligi esa kraudfanding kampaniyasining muvaffaqiyatli amalga oshishida hal qiluvchi omil sifatida e’tirof etiladi.

Kraudfanding platformasi asosidagi moliyalashtirish mexanizmi faoliyati davomida bir necha platformalar asosida shakllandi. Bu jarayonni biz xorijiy va milliy kraudfanding platformalarini solishtirma tahlil asosida yoritib o‘tamiz.

Xorijiy davlatlar tajribasidan ma’lumki, kraudfanding platformalari bugungi kunda turli moliyalashtirish shakllarida xayriya (donation-based), mukofot asosidagi (reward-based), qarz asosidagi (loan-based) hamda aksiyadorlik (equity-based) yo‘nalishlarida faoliyat olib bormoqda. Ushbu mexanizmlar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samarali natijalar berayotganini amaliyotda ko’rishimiz mumkin.

Jahon miqyosida faoliyat yuritayotgan kraudfanding platformalari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ushbu moliyalashtirish mexanizmi ikki asosiy modelga moliyaviy bo‘lmagan (non-financial) va moliyaviy (financial) turlarga ajratiladi. Har bir model o‘zining funksional xususiyatlari hamda ishtirokchilarning motivatsiya omillari bilan farqlanadi. Moliyaviy

bo‘lmagan modelda investor yoki homiy moddiy foyda olishni maqsad qilmaydi; u asosan gumanistik, ijtimoiy yoki shaxsiy qadriyatlar asosida loyiha tashabbuskorini qo‘llab-quvvatlaydi. Bunga qarama-qarshi ravishda, moliyaviy modelda esa homiy o‘z investitsiyasi evaziga ma’lum miqdorda daromad yoki moliyaviy mukofot olishni ko‘zlaydi.

Moliyaviy bo‘lmagan kraudfanding modeli o‘z ichida ikki asosiy turga bo‘linadi. Birinchi tur xayriya (donorlik) kraudfandingi bo‘lib, unda ishtirokchilar beg‘araz tarzda mablag‘ ajratadilar va buning evaziga hech qanday moddiy mukofot kutmaydilar. Ushbu yondashuv, odatda, ijtimoiy, ekologik yoki insonparvarlik yo‘nalishidagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda qo‘llaniladi. Ikkinchi tur - mukofotli (klassik) kraudfanding bo‘lib, bunda loyiha tashabbuskori moliyaviy yordam evaziga homiylarga mahsulot, xizmat yoki boshqa shakldagi mukofot taqdim etadi. Mazkur model tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun muqobil moliyaviy manba hisoblanadi hamda qo‘shimcha aksiyadorlik yoki qarz majburiyatlarini jalb etmasdan biznes yuritish imkoniyatini yaratadi.

Moliyaviy kraudfanding modeli o‘z tarkibida bir nechta yo‘nalishlarni qamrab oladi. Ulardan biri - aksiyaviy kraudfanding (kraudinvesting) bo‘lib, bunda investor kompaniyaning muayyan ulushini xarid qilish orqali uning egalaridan biriga aylanadi. Mazkur model, odatda, startaplar yoki dastlabki rivojlanish bosqichidagi loyihalar uchun xos bo‘lib, kichik investorlar ishtirokida korxona kapitalini shakllantirish hamda biznesni kengaytirish imkonini beradi.

Kreditli kraudfanding (kraudlending yoki P2P kreditlash) moliyalashtirishning shunday shakli hisoblanadiki, unda moliyaviy munosabatlar bank kredit tizimiga yaqin tamoyillarga asoslanadi. Ushbu modelda investorlar loyihalarni moliyalashtiradi va evaziga foiz bilan qaytariladigan qarz shaklida daromad oladilar. Kreditli kraudfandingning ikki asosiy ko‘rinishi mavjud: an’anaviy qarz shartnomasi va shartli (kechiriladigan) qarz.

An’anaviy qarz shartnomasida mablag‘ oldindan belgilangan foiz stavkasi asosida ajratilib, loyiha tashabbuskori uni belgilangan muddatda qaytarishi shart bo‘ladi. Shartli qarz modelida esa mablag‘ faqat loyiha daromad keltira boshlaganidan so‘ng qaytariladi, bu esa investor uchun tavakkal darajasini oshiradi, biroq loyihaning muvaffaqiyatiga bevosita bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, har ikki modelda keng qo‘llaniladigan universal mexanizmlar mavjud. Jumladan, “Hammasi yoki hech narsa” (All-or-nothing) tamoyiliga ko‘ra, mablag‘ faqat to‘liq maqsadli summa yig‘ilgandagina jalb qilinadi. Aksincha, “Yig‘ilgan mablag‘ni saqlab qolish” (Keep-it-all) mexanizmida tashabbuskor belgilangan maqsadga yetmasa ham, to‘plangan mablag‘ni o‘zida qoldirish huquqiga ega bo‘ladi.

Kraudfanding platformalari. Kraudfanding maxsus platformalarda amalga oshiriladi. Pul yig‘ishni boshlash uchun siz loyihaning o‘ziga xos xususiyatlariga javob beradigan mos saytni tanlashingiz kerak. Platforma har bir muallif bilan shartnoma tuzadi. Shu bilan birga, ta’sischilar va qo‘llab-quvvatlovchilarning barcha harakatlari amaldagi qonunchilik normalariga mos kelishi kerak.

Yirik xalqaro platformalar - GoFundMe, Kickstarter, Seedrs, Crowdcube, Lending Club va boshqalar - bugungi kunda turli xil kraudfanding modellarida keng qo‘llanilayotgan eng mashhur onlayn xizmatlar hisoblanadi. Ushbu platformalar loyihalar tashabbuskorlari va ishtirokchilar o‘rtasida ishonchli vositachilikni ta’minlab, moliyalashtirish jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshiradi. Shu jihatdan, ular kraudfanding mexanizmlarining turlarini, ularning iqtisodiy hamda ijtimoiy funksiyalarini va amaliy qo‘llanilish doirasini har tomonlama tasniflash imkonini beruvchi muhim amaliy vosita sifatida xizmat qiladi.

Yevropa mamlakatlarida kraudfanding moliyalashtirishning muqobil hamda jadal sur’atlarda rivojlanayotgan shakli sifatida iqtisodiy tizimga tobora chuqurroq integratsiyalanmoqda. Ushbu hududda mazkur mexanizm kichik va o‘rta biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion g‘oyalarni moliyalashtirish hamda ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbuslarni amalga oshirishda samarali moliyaviy vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda. Xusussan, Buyuk Britaniyada 2024 yil holatiga ko‘ra, Crowdcube, Seedrs va SyndicateRoom

kabi yirik kraudfanding platformalari orqali kompaniyalarga jami 237,7 million funt sterling miqdorida investitsiya yo‘naltirilgan. Bu holat kraudfandingning mamlakatda samarali investitsiya vositasi sifatida shakllanganini hamda kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishda uning ahamiyati ortib borayotganini ko’rsatadi. Shveysariyada 2024 yil holatiga ko‘ra, mamlakat miqyosida 50 ta kraudfanding platformasi faoliyat yuritgan bo‘lib, yetti yil davomida ular orqali jami 203,8 million shveysariya franki miqdorida mablag‘ to‘plangan. Bu raqamlar Shveysariyada kraudfanding bozorining barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Avstriyada esa 2017-yilda faqatgina 6 ta kraudfanding platformasi mavjud bo‘lib, ular orqali 8,1 million yevro jalb etilgan. 2024-yilga kelib, mamlakatdagi platformalar soni 20 taga yetgan, bu esa Avstriyada kraudfanding faoliyatining tez sur’atlarda kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi tomonidan kraudfanding faoliyatini tartibga solish maqsadida qabul qilingan “European Kraudfanding Service Providers Regulation” (ECSPR) reglamenti ushbu tizimning huquqiy barqarorligi, ishonchliligi va shaffofligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2024-yil oxiriga kelib, Yevropa Qimmatli qog‘ozlar bozori boshqarmasi (ESMA) tomonidan European Kraudfanding Service Providers Regulation (ECSPR) reglamenti doirasida akkreditatsiyadan o‘tgan kraudfanding xizmatlari provayderlari soni 159 taga yetgan. Ulardan 98 tasi faoliyatiga oid ma’lumotlar tahlil qilinganda (ESMA hisobotiga, 2024-yil), Yevropa bozorida kraudfandingning rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi muayyan statistik tendensiyalar aniqlangan. Mazkur natijalar Yevropa Ittifoqi miqyosida kraudfanding sohasining huquqiy va institutsional jihatdan барқарор тизим сифатида шаклланаётганини кўрсатади.

Tadqiqot doirasiga kiritilgan 98 ta kraudfanding xizmat ko‘rsatuvchi subyektlardan 81 tasi faqat bitta moliyalashtirish turida faoliyat yuritgan bo‘lsa, qolganlari ikki yoki undan ortiq moliyaviy modelni taklif etgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, 53 ta platforma kredit asosidagi kraudfandingni, 30 tasi qarz asosidagi modelni, 25 tasi aksiyalar asosidagi moliyalashtirishni, shuningdek, 17 tasi boshqa turdagi moliyaviy xizmatlarni amalga oshirgan. Ushbu ko‘rsatkichlar Yevropa bozorida kraudfanding mexanizmlarining diversifikatsiyalashuvi va moliyaviy modellarning ixtisoslashuvi jarayoni jadallashayotganini tasdiqlaydi.

AQSh kraudfanding sohasida jahondagi yetakchi mamlakatlardan biri bo‘lib, u moliyalashtirish modellari hamda platformalar xilma-xilligi nuqtayi nazaridan boshqa davlatlardan sezilarli darajada ustun turadi. Mamlakatda kraudfanding nafaqat startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, balki ijodiy g‘oyalarni amalga oshirish, ijtimoiy tashabbuslarni rivojlantirish va kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida ham keng qo‘llaniladi.

2023-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra , AQSh bozorida kraudfandingning turli modellari bo‘yicha to‘plangan mablag‘lar ulushi turlicha taqsimlangan. Ushbu holat mamlakatda investorlar faolligining yuqori darajada ekanligini hamda kraudfanding madaniyatining jamiyatda chuqur shakllanganini yaqqol namoyon etadi.

AQShda kraudfanding bozori barqaror raqamli infratuzilma va kampaniya tashabbuskorlari sonining ortib borishi hisobiga sezilarli o‘sishni boshdan kechirmoqda. Shimoliy Amerika global kraudfanding faoliyatining qariyb 43% ini tashkil etsa, uning 82% ga yaqini AQSh hissasiga to‘g‘ri keladi.


Mamlakatdagi kraudfanding kampaniyalarining 58% dan ortig‘i mukofot (reward)-asosida, taxminan 34% esa aksiyadorlik (equity) kraudfanding turiga kiradi. Shuningdek, AQShdagi investorlarning 66% dan ortig‘i bir nechta kampaniyada ishtirok etadi, bu esa investorlarning yuqori faolligi va platformalarga bo‘lgan ishonch darajasini yaqqol ifodalaydi.

Aniq me’yoriy-huquqiy tartibga solish mexanizmlari hamda raqamli savodxonlikning yuqori darajasi AQShning global kraudfanding ekotizimidagi yetakchilik mavqeini saqlab qolishiga xizmat qilmoqda.

2023-yilda Xitoy kraudfanding bozori raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, aholining moliyaviy texnologiyalarga nisbatan ortib borayotgan ishonchi va onlayn to‘lov infratuzilmasining keng qo‘llanilishi hisobiga sezilarli o‘sish dinamikasini namoyish etdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kraudfanding Xitoyda nafaqat innovatsion g‘oyalarni moliyalashtirish vositasi, balki kichik va o‘rta biznes subyektlari hamda ijtimoiy loyihalar uchun barqaror kapital manbai sifatida shakllanmoqda. Ushbu jarayon raqamli moliya ekotizimining chuqurlashuvi bilan bir qatorda, moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy innovatsiyalarni rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda.

Grand View Research tomonidan taqdim etilgan tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra, Xitoy kraudfanding bozori 2024-yil holatiga 103,1 million AQSh dollariga teng bo‘lgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023-yildagi natijalardan yuqori ekani bilan ajralib turadi. Ushbu o‘sish bozorda barqaror rivojlanish tendensiyasi shakllanayotganini anglatadi. Prognozlarga ko‘ra, 2030-yilga kelib bozor hajmi 272,3 million dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa 2025-2030-yillar oralig‘ida o‘rtacha yillik 18% (CAGR) o‘sish sur’atini ifodalaydi.

Mazkur yuqori o‘sish dinamikasi, bir tomondan, Xitoy hukumati tomonidan raqamli innovatsiyalar va moliyaviy texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash siyosati, ikkinchi tomondan esa aholining innovatsion va alternativ moliyalashtirish vositalariga bo‘lgan ishonchi hamda talabi ortib borayotgani bilan izohlanadi. Shu tariqa, Xitoy kraudfanding bozori nafaqat miqyos jihatidan kengayib bormoqda, balki milliy raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda.



2-rasm. Kraudfanding bozori tendentsiyalari

2024-yilda globall kraudfanding bozori hajmi 1,42 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, 2025-yilda 1,68 milliard dollarga yetishi, shuningdek, 2034-yilga borib 5,95 milliard dollargacha kengayishi prognoz qilinmoqda. 2025–2034-yillar davrida ushbu bozor yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati (CAGR) 15,11% atrofida bo‘lishi kutilmoqda.

Kraudfanding tashabbuslarining 61% dan ortig‘i aksiyaviy bo‘lmagan platformalar orqali amalga oshirilayotgan bo‘lsa, 68% ga yaqini mobil qurilmalar orqali kirish imkoniyatlari bilan bog‘liq. Bu esa kraudfanding tizimining yanada ommabop va diversifikatsiyalashgan shaklga aylanib borayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, butun dunyo bo‘yicha startaplarning 57% hozirda kraudfandingni o‘zlarining dastlabki moliyaviy manbasi sifatida qo‘llamoqda. Bu holat kapitalni jalb qilishning

an’anaviy mexanizmlaridan muqobil moliyalashtirish manbalariga o‘tish tendensiyasini aks ettiradi[3].

Kraudfanding bozori, ayniqsa startaplar, ijodiy soha vakillari va ijtimoiy loyihalar uchun asosiy moliyalashtirish mexanizmi sifatida shakllanib bormoqda. Hozirda kampaniyalarning 39% dan ortig‘i videotaqdimot (video pitch) formatini qo‘llayotgan bo‘lsa, 33% ga yaqini o‘yin elementlarini qo‘shish (gamified elements) usullarini joriy etgan - bu esa platformalarning foydalanuvchi markazga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari kampaniyalarni optimizatsiya qilish jarayonida faol qo‘llanilmoqda - ishtirokchilarning 42% ushbu vositalardan auditoriya qamrovini kengaytirish va maqsadli harakatni amalga oshirish uchun foydalanadi.

Bundan tashqari, blokcheyn texnologiyasi yordamida mablag‘lar harakatining shaffofligini ta’minlash amaliyoti kengayib bormoqda - bu mexanizm hozirda platformalarning 22% da joriy etilgan. Platformalarning innovatsion yondashuvlari va regulyatorlar tomonidan yaratilayotgan qulay muhit tufayli, kraudfanding bozori global miqyosda o‘z ta’sir doirasini kengaytirishi kutilmoqda.

Global tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, kraudfanding bozori jahonda jadal sur’atlarda rivojlanib, moliyaviy ekotizimning ajralmas va innovatsion qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, Yevropa, AQSh va Xitoy tajribasi bu moliyalashtirish modelining har xil geografik, iqtisodiy va institutsional sharoitlarda qanday samarali ishlashini ko‘rsatib berdi. Bu mamlakatlarda kraudfanding nafaqat startaplar va kichik bizneslar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi, balki investorlar va jamiyat o‘rtasida ochiq, shaffof hamkorlik tamoyillarini mustahkamladi.

Umuman olganda, kraudfanding - bu an’anaviy moliyalashtirish mexanizmlariga muqobil, keng jamoatchilikni jalb etishga asoslangan hamda ishtirokchilar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zaro aloqani ta’minlovchi innovatsion moliyaviy model sifatida shakllanmoqda. Ushbu yondashuvning asosiy ustunliklari sifatida tezkorlik, moliyaviy jarayonlarning demokratlashuvi va innovatsion g‘oyalarga ochiqlikni qayd etish mumkin.

Natijada, kraudfanding bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishni ta’minlash va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashning samarali vositasi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, kraudfanding zamonaviy moliyalashtirishning moslashuvchan, ochiq va samarali mexanizmi sifatida xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda Xitoy tajribasi ushbu tizimning turli iqtisodiy, institutsional va madaniy sharoitlarda muvaffaqiyatli integratsiyalashganini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, kraudfanding modeli kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion tashabbuslarni moliyalashtirish, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish hamda fuqarolik jamiyati ishtirokini faollashtirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Shuningdek, kraudfanding an’anaviy moliyalashtirish shakllaridan farqli o‘laroq, investorlar va loyiha tashabbuskorlari o‘rtasida vositachilarsiz, o‘zaro ishonch asosida moliyaviy munosabatlarni shakllantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonning samaradorligi platformalarning shaffofligi, ishtirokchilarning motivatsiyasi hamda loyihalarning ijtimoiy yo‘naltirilganligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Kraudfandingning mukofotli, aksiyaviy, qarz va xayriya asosidagi modellari o‘z funktsional xususiyatlari va maqsadli auditoriyasiga ko‘ra turlicha afzalliklarga ega bo‘lib, bu tizimni ko‘p qirrali, moslashuvchan va keng qo‘llaniladigan moliyaviy vosita sifatida shakllantiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kraudfanding nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etishning muqobil mexanizmi, balki inklyuziv va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etuvchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

[3] https://www.globalgrowthinsights.com/market-reports/crowd-funding-market-118237

Rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O‘zbekiston uchun, kraudfanding tizimini joriy etish moliyaviy tizimni diversifikatsiyalash, startap ekotizimini rivojlantirish hamda aholi o‘rtasida moliyaviy ishtirokchilik madaniyatini shakllantirish yo‘lida muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bizning xalqimiz kraudfanding so‘zi bilan tanishganiga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa-da, xayr-ehson masalasida azal-azaldan hech bir xalqdan qolishmaydi. Respublika hududida hashar va xayriya yo‘li bilan ko‘plab bino, inshoot, yo‘l va kanallar, muhtojlar uchun uylar bunyod etilgan. Masjid va qabristonlarda o‘rnatilgan xayr-ehson qutilarini, bemorlarning davolanishi uchun turli saytlar va ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar tomonidan mablag‘ yig‘ilishini ham kraudfandingning milliy ko‘rinishi deb aytish mumkin.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida innovatsion, ijodiy va tadbirkorlik tashabbuslarini moliyalashtirish tizimlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi, va O‘zbekiston ushbu globallashuv jarayoniga asta-sekin moslashmoqda. Garchi kraudfanding tushunchasi mamlakatda nisbatan yangi bo‘lsa-da, rivojlangan ekotizimlarga ega davlatlar-AQSh, Yevropa va Sharqiy Osiyo-bilan solishtirganda, O‘zbekistonda ushbu sohaning barqaror va istiqbolli o‘sishi sezilmoqda. Bu jarayon asosan raqamli aloqaning kengayishi, texnologiyaga qiziqqan yosh aholi, tadbirkorlikni rag‘batlantirishga qaratilgan davlat siyosati hamda hamkorlikka asoslangan moliyalashtirish modellarining joriy etilishi bilan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Natijada, ushbu yondashuvlar jamiyat va biznes rivojiga ijobiy hissa qo‘shish potentsialini oshirmoqda.

Kraudfandingning asosiy xususiyati uning turli ijtimoiy qatlamlardan bo‘lgan shaxslarga ular ishonadigan tashabbuslar, mahsulotlar yoki xizmatlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi, shu bilan birga banklar, venchur kapitalchilar yoki davlat jamg‘armalari kabi vositachilik mexanizmlarini chetlab o‘tadi. O‘zbekiston sharoitida startaplar va kichik bizneslar uchun rasmiy moliyaviy resurslarga kirish tarixan byurokratik to‘siqlar, kafillikning yetishmasligi va investor tarmoqlarining cheklanganligi sababli qiyin bo‘lib kelgan, va kraudfanding ushbu bo‘shliqni to‘ldirish imkoniyatini yaratadi. Bu, ayniqsa, yosh tadbirkorlar, san’atkorlar, ijtimoiy faollar va ixtirochilar uchun yangi imkoniyatlar ochadi

O‘zbekistonda kraudfandingning rivojlanishida jamoatchilikning moliyalashtirish jarayonidagi ishtirokini shakllantirishda raqamli transformatsiyaning roli muhim omil hisoblanadi. Internetga ulanish darajasining oshishi, smartfonlardan keng foydalanish va Telegram, Instagram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarga kirish imkoniyatining kengayishi ijodkorlarga keng auditoriyalarga bevosita murojaat qilish imkonini yaratmoqda. Ushbu platformalar nafaqat marketing vositasi sifatida, balki norasmiy kraudfanding maydonchalari sifatida ham faoliyat yuritadi, unda shaxslar loyihalarini taqdim etib, onlayn kuzatuvchilaridan qo‘llab-quvvatlashni so‘rashadi. Garchi O‘zbekistonda hali to‘liq rivojlangan va tartibga solingan kraudfanding infratuzilmasi mavjud bo‘lmasa-da, ijtimoiy media orqali amalga oshiriladigan “grassroots” yondashuvi ayrim holatlarda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Misol tariqasida, tibbiy davolanish, ta’lim stipendiyalari va jamoat loyihalari uchun mablag‘ yig‘ish kampaniyalari ijtimoiy tarmoqlarda muntazam ravishda kuzatiladi.

Ushbu istiqbolli tendensiyalarga qaramay, O‘zbekistonda strukturali kraudfanding platformalarining rivojlanishi hali dastlabki bosqichda qolmoqda. Xalqaro platformalar, masalan Kickstarter, Indiegogo yoki GoFundMe muvaffaqiyatini takrorlashga intilgan bir nechta mahalliy tashabbuslar mavjud bo‘lsa-da, ularning qamrovi va funktsionalligi hanuz cheklangan. Huquqiy asoslarning yetishmasligi, jamoatchilik xabardorligining pastligi, raqamli to‘lov tizimlari bilan integratsiyaning yetarli emasligi va ishonch mexanizmlarining zaifligi kabi omillar ushbu platformalarning rivojlangan bozorlardagi kabi darajada muvaffaqiyat qozonishini qiyinlashtirmoqda. Shuningdek, aholining nisbatan past o‘rtacha daromadi va ayrim hududlardagi raqamli savodxonlikning cheklanganligi kraudfandingning mamlakatda faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, hukumat va turli manfaatdor tomonlar ushbu modelning potentsial foydalarini tan olgan holda, kelajakdagi rivojlanish uchun asos yaratishga qaratilgan dastlabki chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdalar.

Siyosiy nuqtai nazardan, O‘zbekiston hukumati tadbirkorlikni rivojlantirish va kichik hamda o‘rta korxonalarni (KHK) qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator tashabbuslarni amalga oshirdi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki va GIZ (Germaniya Xalqaro Hamkorlik Jamiyati) tomonidan qo‘llab-quvvatlangan “Startup Initiative” kabi dasturlar, kraudfandingni ham o‘z ichiga olgan moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish zarurligiga e’tibor qaratdi. Shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy inklyuziyani rag‘batlantirish va raqamli innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan so‘nggi islohotlar muqobil moliyalashtirishning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda kraudfandingni tartibga soluvchi alohida qonunlar mavjud bo‘lmasa-da, homiylar va ijodkorlarni himoya qiluvchi, shaffoflikni ta’minlovchi va mas’uliyatni rag‘batlantiruvchi huquqiy mexanizmlarni joriy etish masalasi bo‘yicha muhokamalar olib borilmoqda.

Texnologiya va fintech yechimlari O‘zbekistonda kraudfandingning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kraudfanding platformalariga xavfsiz va foydalanuvchiga qulay onlayn to‘lov tizimlarini integratsiya qilish katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirsa-da, bu sohada sezilarli imkoniyatlar mavjud. Click, Payme va Apelsin kabi mahalliy raqamli hamyonlarning kengayishi mikroto‘lovlarni amalga oshirish hamda xayriya va investitsiya jarayonlarini soddalashtirish uchun samarali yo‘l ochmoqda. Bunday to‘lov tizimlarini kraudfanding platformalari bilan muammosiz integratsiya qilish ishtirok etishdagi to‘siqlarni bartaraf etishga va moliyalashtirish jarayonini yanada inklyuziv hamda samarali qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, mablag‘ oqimlarini shaffof kuzatish uchun blockchain texnologiyalari, mukofotlar yoki daromadlarni boshqarishda smart shartnomalardan foydalanish va kampaniyaning samaradorligini oshirish uchun ma’lumotlarni tahlil qilish kabi innovatsiyalar kraudfandingni O‘zbekistonda yangi bosqichga olib chiqish imkonini beruvchi istiqbolli yechimlar sifatida e’tiborga molikdir.

Ta’lim va salohiyatni oshirish O‘zbekistonda kraudfandingning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ijodkorlar samarali kampaniyalarni rejalashtirish, aniq moliyalashtirish maqsadlarini belgilash, auditoriya bilan samarali muloqot o‘rnatish va o‘z va’dalarini bajarish bo‘yicha zarur ko‘nikmalarni egallashlari lozim. Shu bilan birga, potensial homiylar kraudfandingda ishtirok etishning xavf va foydalarini, loyihaning ishonchliligini baholash usullarini hamda homiy sifatidagi ularning rolini tushunishlari kerak. Universitetlar, biznes inkubatorlari, nodavlat tashkilotlar va xalqaro donorlar umumiy ekotizimni rivojlantirishda trening, mentorlik va resurslar taqdim etishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Kelajakni inobatga olganda, O‘zbekistonda kraudfandingning rivojlanish istiqboli keng imkoniyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, shu bilan birga qiyinchiliklardan holi emas. Ushbu modelning muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi, bunda siyosiy islohotlar, jamoatchilik xabardorligi, raqamli infratuzilma va madaniy moslashuv muhim omillar hisoblanadi. Tartibga solish bo‘yicha aniq mexanizmlarni joriy etish, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va barcha manfaatdor tomonlarning huquqlarini himoya qilish barqaror o‘sish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlikni oshirish, muvaffaqiyatli ish tajribalarini targ‘ib qilish va hamkorlik madaniyatini rivojlantirish kraudfandingning mamlakatning moliyaviy va tadbirkorlik ekotizimiga samarali integratsiyasini tezlashtiradi.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida keltirilgan tahlillarni inobatga olgan holda, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Hozirgi kunda O‘zbekiston aholisi orasida norasmiy shaklda kraudfanding mexanizmidan foydalanish holatlari kuzatilishi mumkin. Shu boisdan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida kraudfanding platformalariga oid normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur hisoblanadi.

2. Mamlakatimizda kraudfanding platformasini faol shakllantirish jarayonida ushbu moliyalashtirish usuli yuqori darajada rivojlangan va amaliy tajribaga ega bo‘lgan davlatlar — AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi hamda shunga o‘xshash boshqa mamlakatlar tajribasi va qonunchilik me’yorlariga asoslangan holda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

3. O‘zbekiston aholisi jamg‘armalarini samarali yo‘naltirish maqsadida milliy kraudfanding platformalari sonini kengaytirish zarur. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish, shuningdek, yuqori malaka talab etmaydigan ishsiz aholi qatlamini ish bilan ta’minlash imkonini beradi.

4. Aholini kraudfanding platformasida joylashtirilgan loyiha va tashabbuslarni moliyalashtirishga jalb etish maqsadida, loyiha muallifi yoki kompaniya tomonidan taqdim etilayotgan reklama roliklarini ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida belgilangan shartlar asosida ma’lum vaqt davomida namoyish etishga imtiyozlar berish taklif qilinadi.

5. Aholining bo‘sh turgan mablag‘larini jalb qilish va turli maqsadli innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda riskli (xavfli) holatlarni kamaytirish bo‘yicha choralar ko‘rish. Bu mablag‘larni olish evaziga ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulot yoki xizmatlar taqdim etish bo‘yicha elektron shartnomalar tuzish imkoniyatini ishlab chiqish muhim.

6. Kraudfanding maydonchasiga joylashtirilgan innovatsion loyihalarni intellektual mul k sifatida huquqiy himoya qilish mexanizmini ishlab chiqish zarur.

7. Hozirda faoliyat yuritayotgan Kraudfanders.uz platformasida kuzatilayotgan texnik k amchiliklarni bartaraf etish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, iqtisodiy resurslarning cheklanganligi va inson ehtiyojining doimiy ravishda ortib borishi innovatsion mahsulotlarga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan faol rivojlanishi zarurligini belgilab beradi. Xalqaro tajribalarda kraudfanding platformasidan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu tajribalardan foydalangan holda, O‘zbekistonda yaratilayotgan g‘oya, loyiha va texnologiyalarni shu asosda innovatsiyalarni moliyalashtirishda zamonaviy mexanizm sifatida kraudfanding platformasidan foydalanish kelgusida aholining bo‘sh turgan mablag‘laridan oqilona foydalanish va budjet xarajatlarini tejashga olib keladi. Natijada mahalliy ishlab chiqarish samaradorligi oshib, innovatorlar tomonidan xorijiy investitsiyalar va bank kreditlariga murojaat qilish ehtimolligi kamayadi.

Kraudfanding platformalari nafaqat moliyalashtirish vositasi, balki xalqning iqtisodiy hayotdagi faol ishtirokini ta’minlovchi yangi model hisoblanadi. Bu tizimlar yordamida har bir fuqaro kichik sarmoyasi bilan katta loyihalarga hissa qo‘sha oladi. Innovatsion startaplarni xalq ishtirokida moliyalashtirish esa O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror va raqamli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda kraudfanding hali rivojlanishning dastlabki bosqichida bo‘lsa-da, uning barqaror kengayishi uchun zarur poydevorlar yaratilmoqda. Raqamli transformatsiya, yoshlar innovatsiyasi, xalqaro hamkorlik va muqobil moliyalashtirishga ortib borayotgan qiziqish orqali kraudfanding shaxslar va tashkilotlarga kapital jalb qilish, jamoalar bilan samarali muloqot o‘rnatish va o‘z g‘oyalarini amalga oshirish jarayonini qayta shakllantirish imkoniyatini beradi. Bu nafaqat moliyalashtirish vositasi, balki odamlarni bir-birini qo‘llab-quvvatlashga, umumiy maqsadlar va o‘zaro ishonch asosida kelajakni birga yaratishga undaydigan ijtimoiy harakat sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar / Литература / References:

Belleflamme P., Lambert T., Schwienbacher A. (2013). Individual Kraudfanding practices. Venture Capital, 15(4), 313–333.

Camilleri, M. A., & Bresciani, S. (2022). Kraudfanding Small Businesses and Startups: A Systematic Review, an Appraisal of Theoretical Insights and Future Research Directions. European Journal of Innovation Management, 27, 2183-2209.

Farmon (2020). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-oktyabrdagi PF- 6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

Jovanovic T. (2019). Kraudfanding: What do we know so far? Facta Universitatis, Series: Economics and Organization, 16(1), 1–13.

Krutikov V.K., Dorojkina T.V. i dr. (2017). Razvitiya biznesa v usloviyax sifrovoy transformatsii: texnologii kraudfandinga. Uchebno metodicheskoye posobiye. Koluga. – 2017. – S. 24-25

Matusik S.F., Jones J.M. (2019). The Kraudfanding paradigm: Redefining the intermediary role. Academy of Management Perspectives, 33(4), 480–499.

Miglo A. (2021). Kraudfanding: Definitions, foundations and framework. Journal of Corporate Finance Research, 21(2), 4–17.

Somervell. M. (2024). Top-10 kraudfondingovix platform dlya biznesa v 2024 godu. URL. htps://www. growthbusiness.co.uk